

BRIFING



BRIFING

Termiz shahar mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash bo'limi boshlig'ining birinchi o'rinbosari, shahar hokimining xotin-qizlar masalalari bo'yicha maslahatchisi Mexriniso Kenjaeva ishtirokida brifing o'tkazildi

Mavzu: Termiz shahrida xotin-qizlarning manfaatlarini himoya qilish, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash borasidagi ishlar.

Ayolini asragan el qudratli bo'lur!

Ayolini asragan el qudratli, onasini asragan farzand tolei baland bo'ladi. Zero, dunyodagi jamiki buyuk zotlar, jahongiru fotihlar, oqilu donolar ona bag'rida o'sib ulg'ayishgan. Shu boisdan ham azal azaldan muqaddas bilib, unga hurmat-izzat ko'rsatilgan. Bugun ham yurtimiz ayollari davlatimiz va jamiyatimizning tiborida. Onalik va bolalikni muhofaza qilish, opa-singillarmizni og'irini yengil qilish, ularining qobiliyat va imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish, lo'nda qilib aytganda ayollik baxtini ta'minlash bo'yicha keng ko'lamlı ishlar izchil davom ettirilmoqda. Prezidentimiz tomonidan xotin-qizlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash bo'yicha bergan

topshriqlaridan kelib chiqib amalga oshirilayotgan ishlar fikrimizning yaqqol dalilidir. Shu yuzasidan mutasaddilar oldiga kechiktirib bo'lmaydigan vazifalar qo'yildi. Unda opa-singillarimizni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, iqtidor va qobiliyatlarini ro'yobga chiqarish, faollarni ish bilan ta'minlash, ularga tibbiy va psixologik yordam ko'rsatish, oilaviy ajrailishlarni oldini olish chora tadbirlari ishlab chiqildi.

Jumladan, "Ayollar daftari" shakllantirilib, barcha xonadonlarda xatlov o'tkazildi.

Termiz shaharda 21762 nafar 30 yoshdan yuqori bo'lgan xotin-qizlarni muammolari o'rganilib anketa so'rovnomalari to'ldirildi. "Ayollar daftari"ga 3 ming 639 nafar xotin-qizlar 9 toifa bo'yicha kiritildi. Shu kunga qadar 3639 nafar xotin-qizlarga yordam ko'rsatildi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 28 apreldagi "Moddiy yordam va ko'makka muhtoj oilalarni, xotin-qizlar va yoshlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 250-sonli qarorining 2-ilova "Ayollar daftari"ni yuritish orqali xotin-qizlar muammolarini tizimli ravishda hal etish va ularni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash bo'yicha" VAQTINChALIK TARTIBining 5-bobiga asosan bugungi kunda muammosi hal etilgan quyidagi toifadagi ayollarni "Ayollar daftari"dan chiqarish uchun sessiyaga kiritildi.

Bandligi ta'minlanishi rejalashtirilgan 962 nafardan, shundan 514 nafari bo'sh ish o'rinlariga joylashtirildi, 251 nafariga tikuv mashinka, 230 nafariga pishirish pechlari olib berilib, o'z o'zini band qilish orqali bandligi ta'minlandi.

Kasb-xunarga o'qish istagini bildirgan 414 nafar kasbga o'qitildi.

Kredit olib o'z tadbirkorligini boshlash istagida bo'lgan 869 nafar ayollardan 584 nafariga tijorat banklari tomonidan 14 mlrd 574 mln so'm miqdorda kredit ajratib berildi. 258 nafari ishga joylashtirildi, 4 nafari chet elga ishlash uchun ketgan, 5 nafari boshqa tumanlarga ko'chib ketgan, 18 nafari kredit olishdan bosh tortgan.

Boquvchisini yo'qotgan ehtiyojmand ayollar 305 nafar xotin-qizlarga 224 mln 175 ming so'm bir martalik moddiy yordam berildi.

Ijtimoiy yordamga muhtoj 1-2 guruh nogironligi bo'lgan ayollar 78 nafarga 57 mln 575 ming so'm bir martalik moddiy yordam berildi.

Uy-joyini ta'mirlashga muhtoj I-guruh nogironligi bo'lgan ayollar 24 nafari uy-joyi ta'mirlashga ko'maklashildi. 12 nafariga 12 mln 985 ming so'm bir martalik moddiy yordam berildi.

Noturar joylarda istiqomat qilayotgan, o'zi yoki birgalikda yashovchi oila a'zolarining nomida turar joy bo'lmagan ehtiyojmand oilalar 363 nafar xotin-qizlardan 40 nafari uy-joy bilan taminlandi. 83 nafar ayollarga tegishli tartibda jami 295 mln 529 ming so'm turar joy ijara kompensatsiyasini to'lab berilib, 27 nafari imtiyozli uy-joy olish uchun tavsiya etilib, 54 nafar farzandlari uchun uy-joy so'ragan, ta'mirtalab yaroqsiz uy-joylarda istiqomat qilayotgan 5 nafar xotin-qizlarni nomida uy-joylari mavjudligi hamda 154 nafari arzonlashtirilgan uy-joy so'raganligi sababli "Ayollar daftari"dan chiqarildi.

Qaramog'ida bir va undan ortiq nogironligi bo'lgan bolalari mavjud yolg'iz ayollar 95 nafarga 69 mln 825 ming so'm bir martalik moddiy yordam berildi.

Huquqiy yordamga muhtoj 94 nafarga yordam ko'rsatildi.

Psixologik yordamga muhtoj 101 nafar yordam ko'rsatildi.

Joriy yilning iyul oyiga qadar (173 nafar) 78 nafar ijtimoiy himoyaga muhtoj bo'lgan 1-guruh va 2-guruh nogironlari, 95 nafar qaramog'ida 1 yoki 2 nafar nogiron farzandlari mavjud ayollardan tashqari "Ayollar daftari"ga kiritilgan 3467 nafar xotin-qizlarga moddiy-ma'naviy ko'mak berish orqali "Ayollar daftari"dan chiqariladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 28 apreldagi "Moddiy yordam va ko'makka muhtoj oilalarni, xotin-qizlar va yoshlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 250-sonli qarorining 2-ilova "Ayollar daftari»ni yuritish orqali xotin-qizlar muammolarini tizimli ravishda hal etish va ularni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash bo'yicha" VAQTINChALIK TARTIBiga asosan "Ayollar daftari"ga 9 toifa bo'yicha kiritilgan 3467 nafar xotin-qizlarga tegishli tartibda moddiy-ma'naviy ko'mak berilganligi munosabati bilan ushbu ayollarni "Ayollar daftari" dan chiqarish, shu tartibga ko'ra mahallarda qayta xatlovdan o'tkazish natijasida sektor rahbarlari tomonidan taqdim etilgan 629 nafar xotin-qizlar ro'yxatini "Ayollar daftari"ga 9 toifa bo'yicha kiritish va "Ayollar daftari"ga 9 toifa bo'yicha kiritish hamda "Ayollar daftari"ga kiritilgan xotin-qizlarni ijtimoiy-moddiy qo'llab-quvvatlash hamda ularning 154 nafar farzandlarini yozgi ta'tilda "Amudaryo" sog'lomlashtirish oromgohida dam olishlarini tashkil etish uchun jami 130 900 000 (bir yuz o'ttiz million million to'qqiz yuz ming) so'm miqdordagi to'lovini "Amudaryo" sog'lomlashtirish MChJ hisob raqamiga, "O'zbekiston" MFY fuqarosi Jo'raeva Zulfiya Toshpo'latovnaga 2365000 (ikki mln uch yuz oltmish besh ming) so'm, "Turon" MFY fuqarosi Ibragimova Mahbuba Mamatovnaga 3687500 (uch mln olti yuz sakson yetti ming besh yuz) so'm pul mablag'ini sog'ligini tiklash uchun tegishli tartibda shartnoma asosida to'lab berilishi yuzasidan Xalq deputatlari Termiz shahar kengashi muhokamasiga kiritmoqdamiz.

"Ayollar daftari" bilan ishlash tizimining 2-bosqichini tizimli tashkil etilib, 15.07.2021 yil holatiga Termiz shahrida yashovchi 27078 nafar 30 yoshdan yuqori bo'lgan xotin-qizlar o'rtasida anketa so'rovnoma to'ldirilishi rejalashtirilgan. O'tkazilgan xatlov davomida 21762 nafar 30 yoshdan yuqori bo'lgan xotin-qizlarga anketa so'rovnoma to'ldirildi.

Xatlov davomida 5316 nafar 30 yoshdan yuqori bo'lgan xotin-qizlarga anketa so'rovnomalari to'ldirilmadi.

Bulardan 3639 nafari "Ayollar daftari"ning 1-bosqichida amaliy yordam ko'rsatilgan, 1153 nafari chet elga ishlash yoki o'qish uchun ketganligi, 273 nafari boshqa manzilga yashash uchun ketganligi, 244 nafari sog'lig'i tufayli tibbiyot muassasalarida davolanayotganligi hamda 7 nafari jazo muddatini o'tayotganligi sababli anketa so'rovnomalari to'ldirilmadi. 2-bosqich "Ayollardaftari"ga 1195 nafar moddiy-ma'naviy

ko'makga muhtoj xotin-qizlarni kiritildi va moddiy va ma'naviy ko'mak berildi. Aminmanki, bugun ana shunday baxtga har bir o'zbek ayoli musharraf bo'lyapti. Ularning o'z sevgan kasbi, oilada va jamiyatda bugungi kunda o'z o'rnini bor. Bu biz, ayollarga hayot gultoji, deb qarab, jamiyatda tutgan o'rnimizni yanada mustahkamlash, har jabhada faolligimizni oshirish, har doim sog'lom bo'lishimizni ta'minlashga qaratilgan beqiyos e'zoz tufaylidir.

Xotin-qizlar faolligini oshirish bugungi zamon talabi

Oila va jamiyatdagi har qanday og'riq avvalo ayol kishining yuragida aks-sado beradi. Shuning uchun ayol, oana, "avvalo oilam, el-yurt tinch bo'lsin" deb niyat qiladi. Ayolning sog'ligi, ko'ngil xotirjamligi, ayol ma'naviyati - oila va jamiyat, farzandlarimiz baxtidir.

Prezidentimizning xotin-qizlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash borasidagi topshiriqlari asosida xotin-qizlarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga so'zsiz rioya etilishini ta'minlash, mehnat huquqini kafolatlash va ayollar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, xotin-qizlarni rag'batlantirish hamda ularni qo'llab-quvvatlash bo'yicha "Mo'tabar ayol" ko'krak nishoni ta'sis etildi, Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti laureantlarini qo'llab-quvvatlashning yangi tizimi yaratildi

Har bir mahallada xotin-qizlar jamoatchilik kengashlari tuzilib, qizlarimizni oilaviy hayotga tayyorlash, oilalarda ma'naviy muhitni mustahkamlash, oilaviy ajrimlarni va norasmiy nikohlarni oldini olish bo'yicha aholi o'rtasida targ'ibot tadbirlari hamda davra suhbatlari, o'tkazilmoqda. Yoshlarimiz ongida tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan, qadriyatlarimizga hurmat ruhida qarashlarni shakllantirishda yordam bermoqdalar.

Xotin-qizlarning mehnat huquqlarini himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish, ularning tadbirkorlik tashabbuslarini yanada qo'llab-quvvatlash, har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida "Ayollar daftari" ning tashkil etilishi ayni muddao bo'ldi. Termiz shahardan ham 3639 nafar ayollarimizga yordam ko'rsatildi.

So'nggi yillarda amalga oshirilgan keng qamrovli islohotlar natijasida O'zbekiston Respublikasida jamiyat hayoti va faoliyatining barcha sohalarida xotin-qizlar hamda erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlarni ta'minlash, xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonliklardan himoya qilish masalalari bo'yicha mustahkam huquqiy asoslar yaratildi. 2021 yilning yarim yillik natijalariga ko'ra, 75 nafar xotin-qizlarga "Himoya orderi" berildi.

Gender tenglikni ta'minlash va xotin-qizlarga e'tibor davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Jumladan, Termiz shaharda deputatlarning 50% ni xotin-qizlar tashkil etadi. Shaharda yil sayin rahbar ayollar soni ortib bormoqda, Xalq ta'limida 63 nafar, Tibbiyot sohasida 33 nafar, Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida 35 nafar, xususiylar sektorlarda va boshqa sohalarda 100 dan ortiq rahbar ayollar faoliyat ko'rsatmoqda. Respublika oliy ta'lim muassasalariga xotin-qizlar uchun ajratilgan to'rt foizli

qo'shimcha davlat granti asosidagi qabul ko'rsatkichlari doirasida Termiz shahardan 244 nafar xotin-qizlarga tanlovda ishtirok etishlari uchun tavsiyanomalar berildi. Bularning barchasi Prezidentimizning biz ayollarga otalarcha, akalarcha mehringiz va e'tiboringiz natijasidir!

